# XALQ DEPUTATLARI OQQO’RG’ON TUMANI KENGASHINING
# Q A R O R I

Oqqo‘rg‘on timani Oxunbobooyev ko‘chasi 1-uy, +998 90 121 3159, Oqqo‘rg‘on timani

2025-yil 30-dekabr VII-26-133-10-133-K/25 Oqqo’rg’on tumani

## Oqqo‘rg‘on tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi 1105-sonli qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq, hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1127-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tumani Kengashi,

## QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Oqqo‘rg‘on tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **96,9 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **96,9 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Oqqo‘rg‘on tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **418,5 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy

byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1,2 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 $m^2$ uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga;

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 $m^2$ uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar quyidagilarga muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 6-ilovaga muvofiq;

Tuman mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlansin:
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 7-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 8-ilovaga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 9-ilovaga muvofiq.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (O.O‘ktamov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Abduraxmonov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Oqqo‘rg‘on tumani Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (E.Mirzayev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari O.O‘ktamov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**

**BOBOLOV TO‘RA ABDIYEVICH**

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun Oqqo‘rg‘on tumani mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori**

***ming.so‘mda***

| № | Daromad turlari JAMI | 96 873 000 |
|---|---|---|
| 1 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 5 836 000 |
| 2 | Foyda solig‘i | 2 411 970 |
| 3 | Aylanmadan olinadigan soliq | 4 829 000 |
| 4 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 16 992 360 |
| 5 | Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan | 1 192 000 |
| | Aksiz solig‘i jami | 6 682 000 |
| | alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) | 0 |
| | pivo | 0 |
| 6 | benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i | 6 682 000 |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 3 971 000 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 9 237 000 |
| 9 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 10 786 000 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 17 419 000 |
| 11 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 988 000 |

| | | |
|---|---|---|
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 3 475 400 |
| | shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i | 4 179 000 |
| | Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5) | -1 671 600 |
| 13 | Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar | 0 |
| 14 | Davlat boji | 3 961 710 |
| 15 | Yig‘imlar | 1 344 560 |
| 16 | Jarimalar | 7 688 000 |
| 17 | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 59 000 |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun Oqqo‘rg‘on tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

***ming so‘m***

| № | Xarajatlar miqdori, jami | **96 873 000** |
|---|---|---|
| 1 | Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi | *23 908 023* |
| | shundan: | |
| | "Mening maktabim" | *3 028 200* |
| 2 | Madaniyat bo‘limi | *6 681 346* |
| 3 | Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi | *2 414 894* |
| 4 | Sport bo‘limi | *5 188 089* |
| 5 | Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi | *1 183 138* |
| 6 | Qishloq xo‘jaligi bo‘limi | *2 791 500* |
| 7 | Irrigatsiya bo‘limi | *3 337 306* |
| 8 | Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari | *2 150 965* |
| 9 | Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari | *0* |
| 10 | Hokimiyat | *29 977 658* |
| | Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi | *17 636 674* |
| | "Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari | *1 839 342* |
| | Zahira jamg‘armasi | *1 227 533* |

| | | |
|---|---|---|
| 11 | Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi) | *912 239* |
| | shundan: | |
| | Axborot-kutubxona markazlari | *912 239* |
| 12 | Obodonlashtirish boshqarmasi | *18 327 842* |
| 13 | Boshqa tashkilotlar | *0* |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

**Qishloq xo‘jaligi mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

| T/r | MFY nomi | Koeffitsient |
|---|---|---|
| 1 | Qaxramon MFY | 1,07 |
| 2 | Qo‘rg‘ontepa MFY | 1,07 |
| 3 | Zarafshon MFY | 1,07 |
| 4 | Navro‘z MFY | 1,07 |
| 5 | Zarbdor MFY | 1,07 |
| 6 | Yoshlik MFY | 1,07 |
| 7 | Guliston MFY | 1,07 |
| 8 | Suvti MFY | 1,07 |
| 9 | Tolovul MFY | 1,07 |
| 10 | Xonabod MFY | 1,07 |
| 11 | Xalqabod MFY | 1,07 |
| 12 | Xamzaobod MFY | 1,07 |
| 13 | Madaniyat MFY | 1,07 |

| | | |
|---|---|---|
| 14 | Xosildor MFY | 1,07 |
| 15 | Navbahor MFY | 1,07 |
| 16 | Jag‘alboyli MFY | 1,07 |
| 17 | Sultonobod MFY | 1,07 |
| 18 | S.Segizbaev MFY | 1,07 |
| 19 | Qo‘shtepa MFY | 1,07 |
| 20 | H.Olimjon MFY | 1,07 |
| 21 | Tortuvli MFY | 1,07 |
| 22 | Boyguli MFY | 1,07 |
| 23 | S.Raximov MFY | 1,07 |
| 24 | Birlik MFY | 1,07 |
| 25 | Usta Normat MFY | 1,07 |
| 26 | Mustaqillik MFY | 1,07 |
| 27 | Eltamg‘ali MFY | 1,07 |
| 28 | Qushtamg‘ali MFY | 1,07 |
| 29 | Qo‘rg‘oncha MFY | 1,07 |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

**Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

| T/r | MFY nomi | Koeffitsient |
|---|---|---|
| 1 | Qaxramon MFY | 1,07 |
| 2 | Qo‘rg‘ontepa MFY | 1,07 |
| 3 | Zarafshon MFY | 1,07 |
| 4 | Navro‘z MFY | 1,07 |
| 5 | Zarbdor MFY | 1,07 |
| 6 | Yoshlik MFY | 1,07 |
| 7 | Guliston MFY | 1,07 |
| 8 | Suvti MFY | 1,07 |
| 9 | Tolovul MFY | 1,07 |
| 10 | Xonabod MFY | 1,07 |
| 11 | Xalqabod MFY | 1,07 |
| 12 | Xamzaobod MFY | 1,07 |
| 13 | Madaniyat MFY | 1,07 |

| | | |
|---|---|---|
| 14 | Xosildor MFY | 1,07 |
| 15 | Navbaxor MFY | 1,07 |
| 16 | Jag‘alboyli MFY | 1,07 |
| 17 | Sultonobod MFY | 1,07 |
| 18 | S.Segizbaev MFY | 1,07 |
| 19 | Qo‘shtepa MFY | 1,07 |
| 20 | X.Olimjon MFY | 1,07 |
| 21 | Tortuvli MFY | 1,07 |
| 22 | Boyguli MFY | 1,07 |
| 23 | S.Raximov MFY | 1,07 |
| 24 | Birlik MFY | 1,07 |
| 25 | Usta Normat MFY | 1,07 |
| 26 | Mustaqillik MFY | 1,07 |
| 27 | Eltamg‘ali MFY | 1,07 |
| 28 | Qushtamg‘ali MFY | 1,07 |
| 29 | Qo‘rg‘oncha MFY | 1,07 |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son
qaroriga
5-ilova

**Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari**

| T/r | Tuman va shaharlar nomi | Koeffitsiyent |
|---|---|---|
| 1 | Oqqoʻrgʻon tumani | 1,00 |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son
qaroriga
6-ilova

## Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

| T/r | Tuman va shaharlar nomi | Koeffitsiyent* | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar | 200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan | 500 kv.m dan ortiq bo‘lgan | Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari | Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari |
| 1 | Oqqo‘rg‘on tumani | 1,05 | 1,05 | 1,05 | 1,05 | 1,00 |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son qaroriga
7-ilova

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar**

*(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)*

| T/ | Tuman va haharlar nomi | Iqtisodiyotning barcha rmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar | | Sanoat korxonalari | | Avtotransport vositalarini yuvish | | Alkogolsiz va lli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yer usti | Yer osti | Yer usti | Yer osti | Yer usti | Yer osti | Yer usti | Yer osti |
| 1 | Oqqo‘rg‘on tumani | 1,10 | 1,13 | 1,15 | 1,15 | 1,10 | 1,13 | 1,15 | 1,15 |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son qaroriga
8-ilova

## Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar*

| T/r | Tuman va shaharlarnomi | Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin | Tabiiy bezaktoshdan bloklar | Marmar | Granitlar | Gips toshi, gips va angidrid, ganch | Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar | Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Oqqoʻrgʻon tumani | 1,20 | 1,20 | 1,20 | 1,20 | 1,20 | 1,20 | 1,24 |

Xalq deputatlari Oqqo’rg’on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-133-10-133-K/25 -son qaroriga
9-ilova

**Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar**

| T/r | Tuman va shaharlar nomi | Koeffitsiyent | Stavkasi (foizda) |
|---|---|---|---|
| 1 | Oqqoʻrgʻon tumani | 1,10 | 1,00 |